



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 1 (03)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

1

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Tursunov A.M. O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni.....	7
Abdulazizov A.A. Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari.....	11
Jurayev D.A. Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga taъsir etuvchi omillar.....	15
Suyarov Sh.S. Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish.....	18
Кариева Л.С. Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	21
Axtamov A.U. Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka ta’siri xususida.....	25
Гафуров А.Б. Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях.....	29
Абиткариев А.М. Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности.....	33
Abdullayev D.G’. Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti.....	37
Abdullayev M.G’. Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari.....	42
Isakov A.Y. Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari.....	46
Ashurova G.N. Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari.....	52
Yo‘ldosheva M.F. O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi va ularning statistik tahlili.....	56
Қулматов А.А. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.....	61
Babayev A.N. Yoshlar bandligini ta’minlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari.....	67
Sharipov H.A. Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari.....	71
Турдиева Я. Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования.....	75
Vaxidov A.K. Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari.....	78
Gaymatova D.G’. Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil.....	83
Pardayev E.E. Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.....	87
Ibragimova S.A., Muradov Sh.D. Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.....	91
Адилов Б.Б. Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития.....	96
Yoqubova Z.T. Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashning konseptual asoslari.....	101
Saidaxmedova N.I., Aripov A.S. Oliy ta’lim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati.....	106
Abduvovyeva X.Sh. O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligiga ta’sirining korrelyatsion–regression tahlili.....	111
Умаров А.А. Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибadorligini oshirish.....	116
Shoraximova Z.N. «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash».....	120
Умурзакова З.С. Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш yo‘llari.....	126
Karimov X.O. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari.....	130

Aхунов М.А. Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари.	134
Ахмаджонов С.С. Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси.....	138
Abdullayeva Sh.А. Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralari boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish.....	142
Дусанов С.М. Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти.....	146
Мамаражобов А.С. Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari.....	151
Nigmatova D.Z., Amanov E.G’. Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalar samaradorligiga ta’siri.....	157
Ikromjonova M.U. To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi.....	160
Madaminjonov A.O. To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari.....	164
Jamoliddinova S.S. Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni.....	168
Akbaraliyev A.E. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....	173
Эрматова С.И. Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....	178
Maxsudov Sh.S. To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati.....	181
Boyev X.I., Adilov B.B. Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida.....	186
Raxmonova N.A. Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari.....	190
Якубова Д.М. Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве.....	194
Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y. Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari.....	198
Matyoqubova D.O. Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish.....	202
Rahmatullayeva F. Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri.....	206
Mamajonov L.A. Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari.....	209
Давруков Ф.У. Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан.....	213
Убайдуллаева Н.Р. Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний.....	222
Abdullayev A.A. Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	227
Alimov O.N. O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	230
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari.....	235
Mamajonova N.A. Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi.....	239
Sanaqulova A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar.....	243
Nazarov N.N. Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	247
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati.....	251
Sanaqulova A., Ochilova M. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot.....	254
Umarov I.Y. Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili....	257

BIZNES TUZILMALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH

ДИВЕРСИФИКАЦИЯ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ БИЗНЕС-СТРУКТУР

DIVERSIFICATION OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF BUSINESS STRUCTURES

Matyoqubova Dilfuza Olimboyevna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,
Turizm kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya

Mazkur maqolada biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritiladi. Innovatsion faoliyatni texnologik, mahsulot va bozor yo‘nalishlari bo‘yicha diversifikatsiya qilishning raqobatbardoshlikni oshirishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, innovatsiyalarni joriy etishda investitsiya manbalarini kengaytirish, raqamli hamda ekologik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Xorijiy tajriba asosida innovatsion diversifikatsiyaning samarali mexanizmlari aniqlanib, ularni milliy iqtisodiyot sharoitida qo‘llash bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: innovatsion rivojlanish, diversifikatsiya, biznes tuzilmalari, raqobatbardoshlik, texnologik innovatsiyalar, mahsulot diversifikatsiyasi, bozor strategiyasi, investitsiya manbalarini, raqamli texnologiyalar, ekologik innovatsiyalar.

В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты диверсификации инновационного развития бизнес-структур. Обосновывается важность диверсификации инновационной деятельности в технологическом, продуктовом и рыночном направлениях для повышения конкурентоспособности. Также анализируются возможности расширения источников инвестиций и использования цифровых и экологических технологий при внедрении инноваций. На основе зарубежного опыта определены эффективные механизмы инновационной диверсификации и разработаны практические предложения и рекомендации по их применению в условиях национальной экономики.

Ключевые слова: инновационное развитие, диверсификация, бизнес-структуры, конкурентоспособность, технологические инновации, продуктовая диверсификация, рыночная стратегия, источники инвестиций, цифровые технологии, экологические инновации.

This article discusses the theoretical and practical aspects of diversifying the innovative development of business structures. The importance of diversifying innovative activities in technological, product and market directions in increasing competitiveness is substantiated. Also, the possibilities of expanding investment sources and using digital and environmental technologies in the implementation of innovations are analyzed. Based on foreign experience, effective mechanisms of innovative diversification are identified and practical proposals and recommendations for their application in the conditions of the national economy are developed.

Keywords: innovative development, diversification, business structures, competitiveness, technological innovations, product diversification, market strategy, investment sources, digital technologies, environmental innovations.

Bilimga asoslangan innovatsion jarayonlar boshqaruv nuqtai nazaridan ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi biznes tuzilmalarini texnik imkoniyatlariga yanada e‘tibor qaratishga majbur qiladi. Raqobatbardoshlikni saqlash va bozordagi mavqeni yo‘qotmaslik maqsadida, ortib borayotgan axborot oqimlarini samarali qayta ishlash, filtrlash va tahlil qilish

algoritmilari zarur bo‘ladi. Bu esa innovatsion mahsulotlarni yaratish tezligi va sifatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi, shuningdek, biznesning raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Y.A.Shumpeter o‘zining “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” nomli asarida innovatsiyalar iqtisodiy o‘sish va rivojlanishning asosiy manbai sifatida izohlanadi [1]. Muallif biznes tuzilmalarida yangi mahsulotlar, texnologiyalar va bozorlarni joriy etish orqali innovatsion diversifikatsiya raqobatbardoshlikni oshirishini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

M.E.Porterning “Raqobat ustunligi: yuqori natijalarni yaratish va saqlab qolish” nomli adabiyotida biznes strategiyalarida innovatsiya va diversifikatsiyaning tutgan o‘rni tahlil qilinadi [2]. Muallif mahsulot va bozor diversifikatsiyasi orqali barqaror raqobat ustunligiga erishish mexanizmlarini yoritadi.

OECD ning “Innovatsiyalar va biznes dinamikasi” hisobotida biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilishning amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi [3]. Raqamli va ekologik innovatsiyalarni joriy etish orqali korxonalar samaradorligini oshirish hamda global bozorlarga integratsiyalashuv masalalari tahlil etiladi.

Ushbu tadqiqotda biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish jarayoni empirik va komparativ usullar orqali o‘rganiladi. Ma‘lumotlar yig‘ish uchun so‘rovnoma, intervyu va korporativ hisobotlar tahlili qo‘llanadi. Statistik va sifatli tahlil usullari kombinatsiyasi diversifikatsiya strategiyalarining samaradorligini baholashga imkon beradi.

Innovatsion menejment bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshirish uchun ma‘lum shart-sharoitlar shakllanadi. Ko‘pincha innovatsion faoliyat biznes tuzilmalarining mavjud infratuzilmasi va resurslariga tayangan holda amalga oshiriladi, ya‘ni u innovatsiyalarni yaratish va tatbiq etishda ma‘lum asosga ega bo‘lishini talab qiladi. Shu bois, innovatsion faoliyat ko‘pincha yangi va ilgari tajribasiz bo‘lgan biznes muhitida ishlashni ham o‘z ichiga oladi [4].


Diversifikatsiya deganda bir vaqtning o‘zida kapitalni turli investitsiya obyektlari o‘rtasida taqsimlash, yangi sanoat va faoliyat sohaslariga kirib borish, faoliyatning geografik chegaralarini kengaytirish, kompaniyaning assortimentini, mahsulot nomenklaturasini kengaytirish va hatto uni o‘zgartirish tushuniladi. Ba‘zi olimlar diversifikatsiyani ixtisoslashuvga to‘liq teskari ekanligini yoqlaydilar [5].

Shu bilan birga, jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida innovatsion faoliyatga asoslangan rivojlanish, ya‘ni biznesning prinsipial yangi yo‘nalishlarini rivojlantirish, ishtirokchilarga o‘ziga xos biznesni yaratish imkonini beradi. “Diversifikatsiya” tushunchasini ta‘riflashga yondashuvlarning xilma-xilligini umumlashtirgan holda shuni aniqlash mumkinki, unda quyidagilar ko‘rib chiqiladi:

- biznesning muayyan sharoitlariga qarab uzoq muddatli maqsadlar, vazifalar va ularni hal qilish yo‘llarini ko‘zda tutuvchi biznes tuzilmasi strategiyasi;
- bozor talablariga moslashishning samarali usuli va tadbirkorlik tuzilmasining ishlab chiqarishning boshqa sohaslariga kirib borish jarayoni;
- ishlab chiqarishdagi nomutanosibliklarni bartaraf etish va resurslarni qayta taqsimlash, tarkibiy o‘zgartirishning dolzarb yo‘nalishlarini belgilash vositasi – ishlab chiqarishni boshqalar bilan uyg‘unlashgan holda tashkiliy shakllaridan biri.

Diversifikatsiya qiluvchi biznes tuzilmasi, agar boshqaruv tizimi yangi faoliyat turi doirasida to‘g‘ri qurilgan bo‘lsa, umumiy iqtisodiy xavflarni kamaytiradi. Diversifikatsiya tushunchasi portfel strategiyasini uning to‘rtta tarkibiy qismidan biri sifatida, ya‘ni o‘sish vektori yoki kompaniyaning kelajakdagi faoliyat sohasining yo‘nalishi sifatida shakllantirishda qo‘llaniladi. Tadbirkorlik tuzilmasi faoliyatini diversifikatsiya qilish deganda korxonada shu paytgacha shug‘ullanib kelgan asosiy biznes doirasidan chiqib, yangi tarmoqlar va sohalarga kirib borgan holda bir vaqtning o‘zida iqtisodiyotning ham mahsulot, ham bozorni yangilash (differentsiatsiya qilish) tushuniladi [6].

Texnologik taraqqiyotga asoslangan diversifikatsiya ko‘pincha liberallashtirishga asoslangan diversifikatsiyaning zaruriy sharti hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Biznes tuzilmasidagi diversifikatsiya zaruriy shartlarining o‘zaro bog‘liqligi

Yuqoridagi rasm texnologik jarayon va liberallashtirish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tizimli ravishda aks ettiradi. Diagrammaning yuqori qismida “Texnologik jarayon” tushunchasi markaziy o‘rin egallab, ishlab chiqarish va eksport faoliyatini modernizatsiya qilishning asosiy omili sifatida talqin etilgan. Texnologik jarayonlar doirasida, bir tomondan, yangi uskunalar va ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanish ko‘zda tutilsa, ikkinchi tomondan, ekologik innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishga xizmat qiladi.

Rasmda ko‘rsatilgan o‘qlar texnologik yangilanishlar bilan eksportning yuqori darajasi hamda mahsulot sifatining xalqaro savdo standartlariga muvofiqligi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni ifodalaydi. Ya’ni, ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash mahsulot sifatini yaxshilaydi, bu esa xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. O‘z navbatida, eksport salohiyatining oshishi ishlab chiqaruvchilarni yanada yuqori standartlar va innovatsiyalarni joriy etishga undaydi.

Diagrammaning quyi qismida joylashgan “Liberallashtirish” tushunchasi esa ushbu jarayonlar uchun qulay institutsional va iqtisodiy muhit yaratishini anglatadi. Bozor mexanizmlarining erkinlashuvi, savdo to‘siqlarining kamayishi va raqobatning kuchayishi texnologik rivojlanish hamda eksport integratsiyasini jadallashtiradi. Shu tariqa rasm texnologik yangilanish, mahsulot sifati, ekologik yondashuv va liberallashtirishning uzviy bog‘liqligini kompleks tarzda yoritib beradi.

Diversifikatsiyani amalga oshirish korxonaning rentabelligini oshirishi yoki katta yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, diversifikatsiyani amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida qaror qabul qilishda mas’uliyat bilan yondashish muhimdir. Diversifikatsiya strategiyasini rejalashtirishni to‘rt bosqichda amalga oshirish tavsiya etiladi. Belgilangan bosqichlarning har birida amalga oshirilgan strategiyadan maksimal foyda olish uchun bir qator masalalar ko‘rib chiqilishi kerak [7].

Birinchi bosqich - biznes tuzilmasi faoliyatini diversifikatsiya qilish zarurligini aniqlash. Ushbu bosqichda biznes tuzilmasidagi muammolarni aniqlash, ushbu muammolarni hal qilish yo‘llarini tahlil qilish, aniqlangan usullarni biznes tuzilmasining imkoniyatlari bilan bog‘lash kerak. Agar biznes tuzilmasida uning asosiy faoliyati bilan bog‘liq hal etilmagan muammolar mavjud bo‘lsa, u holda sa’y-harakatlarni birinchi navbatda ularni bartaraf etishga qaratish va shundan keyingina diversifikatsiyani amalga oshirish kerak. Biznes tuzilmasi maqsadiga zid kelmasligi kerak bo‘lgan diversifikatsiyaning maqsadga muvofiqligini batafsil asoslashni ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Ikkinchi bosqich - diversifikatsiya strategiyasini tanlash. Batafsil makroiqtisodiy va sanoat tahlili biznes tuzilmasi qaysi yo‘nalishda rivojlanishi kerakligini aniqlash imkonini beradi. Buning

uchun barcha ishlab chiqarish omillari va korxonaning umumiy faoliyatini tahlil qilish kerak. Shuningdek, siz menejerning o‘tmishdagi tajribasiga yoki ushbu masala bo‘yicha mutaxassislarning fikriga tayanishingiz mumkin.

Uchinchi bosqich - diversifikatsiya samaradorligini baholash. Korxonaning o‘z faoliyatida maqsadlariga erishish darajasini baholash tufayli diversifikatsiya strategiyasini amalga oshirish samaradorligini baholash mumkin. Baholash uchun mutlaq va integral ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin.

To‘rtinchi bosqich - diversifikatsiya strategiyasini amalga oshirish ustidan nazorat. Ushbu bosqichda nazoratni amalga oshiradigan shaxslar va buning uchun foydalanadigan vositalar aniqlanadi. Strategiyani amalga oshirish jarayonida uni tuzatish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi mumkin. Agar korxonada faoliyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan va tanlangan diversifikatsiya strategiyasi bilan maqsadga erishishni imkonsiz qiladigan ichki yoki tashqi muhitda o‘zgarishlar ro‘y bergan bo‘lsa, u ko‘rib chiqilishi va tegishli o‘zgarishlar kiritilishi kerak.

Biznes tuzilmalari innovatsion faoliyatni amalga oshirish jarayonida mavjud resurslar va tajribaga tayansa ham, yangi sharoitlarga moslashish va faoliyat yo‘nalishini diversifikatsiya qilish zarur. Innovatsion menejment kompaniyalar uchun global raqobat va rivojlanish sharoitida dinamik o‘shishni ta‘minlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik va yangi bozor mexanizmlarini tatbiq etish orqali samaradorlik oshadi. Natijada, innovatsion faoliyat va diversifikatsiya strategiyalari biznesning barqarorligi, raqobatbardoshligi va kelajakdagi muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Tadqiqot natijalari amaliyotda qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Schumpeter, J.A. *The Theory of Economic Development*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934, pp. 66–94.
2. Porter, M.E. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. New York: Free Press, 1985, pp. 11–43.
3. OECD. *Innovation and Business Dynamics*. Paris: OECD Publishing, 2015, pp. 25–52.
4. Gort M. *Diversification and integration in American industry*/ M. Gort. - Princeton, Princeton University Press, 1962.
5. Коринко М.Д. *Диверсификация: теоретические и методологические основы: монография*/М.Д. Коренко. – К: ННЦИАЭ, 2007. – 447с.
6. Ансофф И.В. *Новая корпоративная стратегия* / И.В.Ансофф // Питер Ком. – 2008. – 416с.
7. Hena Diaz L.F. *Macroevolutionary diversification rates show time dependency* /L.F. Hena Diaz, L.J. Harmon, M.T.C. Sugawara, E.T. Miller, M.W. Pennell// *Proc. Natl. Acad. Sci. U.S.A.* – 2019. – №116. – p. 7403-7408.